



INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

# 2026



«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-  
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA  
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 5-SONLI ILMIY,  
MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI  
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ  
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net  
O'ZBEKISTON-2026



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Zoirova Setora Jahongir qizi

CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi interaktiv texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli vositalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Interaktiv platformalar, sun'iy intellekt dasturlari hamda innovatsion metodlarning boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativ fikrlash, sun'iy intellekt, interaktiv texnologiyalar, innovatsion ta'lim, raqamli pedagogika, kreativlik, zamonaviy metodlar, ta'lim texnologiyalari.

Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarga noodatiy yondashuvi va yangi g'oyalarni ilgari surishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu jumladan, Prezidentimizning 2018-yil 14-avgustda PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida "Boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan". Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida sun'iy intellekt asosidagi interaktiv texnologiyalar ta'lim jarayoniga keng kirib kelmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv vositalar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarda har bir narsa va hodisaga kreativ yondashishni shakllantiradi. Kreativ fikrlash - bu insonning yangi, noodatiy va samarali g'oyalarni yaratish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirish ularning kelajakdagi intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Kreativ fikrlash orqali o'quvchilar muammolarni mustaqil hal qilish, erkin fikr bildirish va yangicha yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar. Kreativlik (ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik so'zini sodda tilda tushintiradigan bo'lsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'nolarni anglatadi. Uning tag zaminida esa originallik, amaliylik, va erkinlik yotadi. Hayotiy misol qiladigan bo'lsak, ertakni qayta hikoya qilayotgan jarayonimizda nimadir fikrlar qilib ketsak yaratuvchanlikka misol bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda kreativlikni rivojlantirish o'quvchining o'z muhiti bilan o'zaro ta'siri jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

Boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantirish uchun turli innovatsion metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, interaktiv texnologiyalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Interaktiv vositalar - o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlikni ta'minlaydi. Bunday vositalar o'quvchilarga bilimni chuqurroq anglash, tahlil qilish va o'z fikrini erkin ifodalash imkonini beradi. Interaktiv ta'lim vositalari yordamida o'quv materiallari ko'rgazmali, esda qolarli va tushunarli shaklda bayon qilinadi. Dars jarayonida tovush, rasm, animatsiya, video va interfaol topshiriqlarning qo'llanishi o'quvchilarning idrok jarayonlarini faollashtiradi, ularning motivatsiyasi va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda motivatsiyaning yuqori bo'lishi o'quv natijalarining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, interaktiv vositalar o'qituvchiga darslarni individual va differensial yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi. Elektron testlar, onlayn baholash tizimlari va interfaol mashqlar o'quvchilarning bilimni tez va aniq diagnostika qilishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshiradi hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yadi. Bu usullarni amalga oshirish uchun ko'p qulayliklar chiqib ketgan. Eng keng tarqalib borayotgani sun'iy intellekt vositalari hisoblanadi. Bu vositalar orqali o'quvchilar maxsus topshiriqlarni bajarashadi. O'quvchilarning bilim darajasiga qarab ularga vazufalar beradi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Ular SI orqali rasmlar, hikoyalar, videolar tuzishlari mumkin. SI orqali rasm yaratish - bu matn (prompt) asosida sun'iy intellekt yordamida yangi vizual tasvirlar hosil qilish jarayonidir. Bunda o'quvchi o'z tasavvurini so'z orqali ifodalaydi va SI uni rasmga aylantiradi. Bu jarayon: tasavvur, matn, rasm ko'rinishida amalga oshadi. O'quvchilar bu yaratgan narsalar bo'yicha yangi narsalar yaratadi. Rasmlardan qayta hikoyalashni, kreativ fikrlash berishni o'rganadi. Tasavvuri oshadi, dunyo qarashi kengayadi va yangicha fikrlar paydo qiladi. Yaratgan narsalari asosida ma'lumotlar yig'ishadi va yangi, hech kimnikiga o'xshamaydigan kreativ fikrlar berishadi. O'qituvchi hamkorligida vazifalarni bajarishadi. Boshlang'ich sinf darsliklarida hikoyani davom ettirish, rasmga qarab qayta hikoya qilish, loyiha ishlari ko'pgina uchraydi. Ularning SI ning ma'lum bir turlari asosida buni bajarishlari mumkin. Avval o'zlari fikrlar berishadi, undan so'ng SI orqali yaratilgan javoblarni birga tahlil qilishadi. Keyingi bosqichlarda ular yanayam kengroq va bir-birlarinikiga o'xshamaydigan fikrlar berishadi. Hozirda keng qo'llaniladigan SI vositalari: ChatGPT, Gemini, Claude, Grok, Copilot, AI test platformalari. Bu turlar ko'pgina o'qituvchi tomonidan dars mashg'ulotlariga qo'llanib kelinmoqda. Dars davomida o'qituvchi vaqtida tejaydi, o'quvchilar esa darsda zerikib qolishmaydi.

Misol uchun, 3-sinf matematika darsida Quizizz platformasi orqali "Ko'paytirish jadvali" bo'yicha test tashkil etilishi o'quvchilarning tezkor fikrlashi va darsdagi faolligini oshiradi. Kahoot platformasi yordamida ona tili fanidan so'z turkumlari mavzusida viktorinalar o'tkazilib, o'quvchilar o'yin orqali bilimlarini mustahkamlaydi. LearningApps platformasida esa moslashtirish, juftlik topish yoki

rasmi topshiriqlar orqali o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlashi rivojlantiriladi. 2-sinf "O'qish savodxonligi" kitobida "Valivoyning hikoyasi" (Sobit G'afurov) asosida SI orqali kreativ fikrlashga undovchi savollar berib ko'ramiz. Misol uchun, agar sen shu qishloqqa borgan bo'lsang, qaysi ishni birinchi bo'lib qilgan bo'larding va nima uchun?. Qahramon o'rnida bo'lsang, qaysi hayvon bilan do'stlashgan bo'larding?. Tasavvur qil: qishloq hayotiga yana 3 ta yangi o'yin qo'shilsa, ular qanday bo'lishi mumkin?. Agar qishloqdagi hayvonlar gapira olsa, ular nima haqida suhbatlashardi deb o'ylaysan?. Endi ularga SI orqali ota-onalari bilan birgalikda bajarishlari uchun topshiriq beramiz. Ijodiy loyiha topshiriqlari. "Qishloqda yozgi dam olish" mavzusida SI yordamida hikoya yozing. "Men qishloqda bo'lsam..." mavzusida AI yordamida virtual sayohat tasvirini yarating. Natija ular ota-onasi bilan hamkorlikda ishlaydi va darsdan tashqari ham mustaqil ishlash ko'rsatichlari ortadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy vositalardan foydalanish o'quvchilarda har tomonlama o'sishni oshiradi. Kelajakda raqobatbardosh kadr va o'z fikrini bemalol ayta oladigan shaxs sifatida kamol topishadi. SI orqali olib borilgan darslar qiziqarli bo'ladi, hamma o'quvchilarni birdek diqqatini jamlashni osonlashtiradi. Barcha dars mashg'ulotlarida sun'iy intellekt asosidagi interaktiv texnologiyalaridan samarali foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini yangi boqichga olib chiqadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. "Umumiy pedagogika". Darslik. Toshkent, "Innovasiyon rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2020, 526 b.
2. Luckin, R. Machine Learning and Human Intelligence. UCL Institute of Education, 2018
3. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial Intelligence in Education. 2019
4. O'qish savodxonligi: 2-sinf uchun darslik. IV qism. - Toshkent: Novda Edutainment, 2023. - B. 53.

